


VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2024- yilning yanvar-mart oylarida 1 101 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2023- yilning shu davriga nisbatan 13,1 %ga kamdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 488 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 44,3 %), xizmatlar sohasida 290 ta (26,3 %), sanoatda 216 ta (19,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 65 ta (5,9 %), qurilishda 42 ta (3,8 %), tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-mart holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 54 561 ta (o‘tgan yilning shu davrida 50 521 ta)ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 33 079 tani (jamiga nisbatan 60,6 %) tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar birligidan

	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Farg‘ona viloyati	1 266	1 101	-165
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	246	194	-52
Qo‘qon	109	118	9
Quvasoy	69	41	-28
Marg‘ilon	83	65	-18
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	86	60	-26
Qo‘shtepa	41	46	5
Bag‘dod	36	25	- 11
Buvayda	56	53	-3
Beshariq	40	37	-3
Quva	72	49	-23
Uchko‘prik	71	55	-16
Rishton	38	66	28
So‘x	35	29	-6
Toshloq	56	53	-3
O‘zbekiston	64	48	-16
Farg‘ona	47	60	13
Dang‘ara	54	34	-20
Furqat	28	37	9
Yozyovon	35	31	-4

2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi
2024- yil yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan, %da




2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Farg‘ona shahrida - 17,6 %, Qo‘qon shahrida - 10,7 %, Rishton shahrida - 6,0%, Marg‘ilon shahrida - 5,9%, Oltiariq tumanida - 5,4 %, Farg‘ona tumanida 5,4 %, Uchko‘prik tumanida – 5,0 %, Buvayda tumanida - 4,8 %ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

birlikda


	<i>2023- yil yanvar- mart</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
Jami	1 266	1 101	-165
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	89	65	-24
Sanoat	250	216	-34
Qurilish	80	42	-38
Savdo	508	488	-20
Tashish va saqlash	86	32	-54
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	61	83	22
Axborot va aloqa	79	40	-39
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	36	20
Boshqa faoliyat turlari	107	99	-8

2024- yilning yanvar- mart oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 488 ta, shuningdek :




2024-yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 10,8 birlikni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1000 aholiga, birlikda).



2024- yilning yanvar-mart oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Quvasoy shahrida 17,8 birlik, Farg‘ona shahrida 17,5 birlik, So‘x tumanida 12,5 birlik, Oltiariq tumanida 11,9 birlik, Rishton tumanida 11,6 birlik, Qo‘qon shahrida 11,2 birlik, Marg‘ilon shahrida 11,1 birlikni tashkil etdi. Buvayda tumanida 6,8 birlikka teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib qolmoqda.

yanvar-mart oyida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni¹⁾
(har 1 000 aholiga, birlikda).




¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, %da

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 64,0 %ni tashkil qildi (2023- yilning yanvar- mart oyida 62,3%).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2023- yil	2024- yil	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	35 312	33 079	-2 233
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	1 206	1 101	-105
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YaHM	%	62,3	64,0	1,7
Sanoat	%	43,4	51,5	8,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	94,7	94,1	-0,6
Investitsiya	%	83,4	84,7	1,3
Qurilish	%	63,4	69,4	6
Chakana savdo	%	91,3	91,2	-0,1
Xizmatlar	%	66,2	65,3	-0,9
Yuk tashish	%	93,1	93,5	0,4
Yuk aylanmasi	%	95,0	95,7	0,7
Yo'lovchi tashish	%	95,7	96,3	0,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,1	97,5	0,4
Eksport	%	59,3	69,3	10,0
Import	%	82,1	76,5	-5,6

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(yanvar-mart, %da)



Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari


(2024- yil yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan, % da)

Hududlar	Sanoat		Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		Investitsiyalar		Qurilish	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Viloyat	43,4	51,5	94,7	94,1	63,4	69,4	83,4	84,7
<i>shaharlar:</i>								
Farg'ona	26,8	30,8	84,0	88,2	42,9	60,6	87,6	87,0
Qo'qon	34,6	55,5	99,8	98,7	89,2	57,7	96,9	90,5
Quvasoy	36,8	44,5	98,3	71,9	46,5	95,5	88,7	100,0
Marg'ilon	97,5	95,9	99,9	98,3	54,4	95,2	38,8	56,9
<i>tumanlar:</i>								
Oltiariq	43,9	60,7	99,0	99,0	72,9	94,4	99,3	95,0
Qo'shtepa	22,3	58,3	99,6	99,5	92,8	97,4	99,0	77,3
Bag'dod	81,6	64,8	96,4	95,7	67,1	86,3	97,9	94,5
Buvayda	59,0	68,0	99,7	99,6	97,0	97,5	99,6	96,7
Beshariq	100,0	62,1	95,1	94,5	46,0	37,8	90,0	96,7
Quva	45,9	45,0	99,6	99,7	48,2	94,9	99,5	95,6
Uchko'prik	83,7	71,7	99,6	99,7	94,3	97,8	99,1	97,4
Rishton	51,2	45,1	99,6	99,5	31,5	36,5	98,9	98,5
So'x	100,0	100,0	99,8	99,8	61,4	57,7	96,5	92,3
Toshloq	8,7	47,6	99,3	99,6	65,3	62,1	99,1	97,0
O'zbekiston	52,1	46,3	98,0	98,4	93,7	81,1	98,5	89,4
Farg'ona	20,9	13,4	65,9	68,3	33,8	28,7	50,8	74,6
Dang'ara	61,7	69,3	99,2	97,0	52,3	68,7	60,8	67,7
Furqat	100,0	100,0	99,4	99,2	77,9	40,7	99,5	87,3
Yozyovon	100,0	100,0	84,0	99,6	41,5	32,3	100,0	84,8

davomi


	Xizmatlar		Savdo		Eksport	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Viloyat	66,2	65,3	91,3	91,2	59,3	69,3
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	41,2	40,5	83,5	87,5	48,8	56,3
Qo'qon	71,3	71,4	89,9	88,2	49,7	56,8
Quvasoy	78,5	78,7	96,8	98,8	60,2	84,8
Marg'ilon	83,2	81,9	96,9	97,4	98,1	99,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	86,3	86,3	95,8	97,5	89,8	91,4
Qo'shtepa	84,2	81,5	97,5	96,5	27,3	67,8
Bag'dod	78,7	77,7	96,4	96,4	100,0	48,8
Buvayda	59,2	56,9	95,8	98,1	67,0	67,0
Beshariq	73,8	72,6	97,9	97,8	100,0	32,7
Quva	73,8	72,7	98,2	98,1	34,3	64,3
Uchko'prik	76,3	75,2	76,9	68,0	100,0	94,4
Rishton	74,6	72,6	95,8	96,5	29,6	31,3
So'x	81,6	81,6	99,4	99,3	100,0	100,0
Toshloq	78,1	74,1	98,8	99,0	10,3	55,2
O'zbekiston	74,7	74,8	94,2	93,7	37,6	72,7
Farg'ona	72,8	73,3	98,4	98,6	56,0	15,5
Dang'ara	79,4	78,3	95,9	96,1	62,4	96,0
Furqat	82,9	82,6	96,2	96,2	100,0	100,0
Yozyovon	81,6	80,8	96,4	96,7	100,0	100,0

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 315,6 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 69,3 %ni tashkil etdi.






**Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)
eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 99,7 %, Dang'ara tumani – 96,0 %, Uchko'prik tumani – 94,4 %, Oltiariq shahrida – 91,4 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Farg'ona tumani – 15,5 %ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 259,2 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy importning 76,5 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumanida - 100,0 %, So'x tumanida - 100,0 %, Dang'ara tumanida – 100,0 % Furqat tumanida – 100,0%, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 99,9 %, Rishton tumanida – 99,6 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida – 58,3 %ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari 4 324,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo'qon shahar (793,3 mlrd. so'm), Farg'ona shahar (727,6 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (556,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (345,9 mlrd. so'm) va Qo'shtepa (275,4 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (23,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2024- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 51,5 %ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (95,9 %), Uchko'prik tumani (71,7 %) Dang'ara tumani (69,3 %), va Buvayda tumani (68,0 %), hissasiga tegishli. Farg'ona tumanida (13,4 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 5 323,2 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 91,2 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri 980,2 mlrd.so'm), Qo'qon shahri (724,5 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (703,5 mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (421,7 mlrd.so'm), Oltiariq tumani (322,8 mlrd.so'm) Quva tumani (315,3 mlrd.so'm), va Furqat tumani (56,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2024- yil yanvar - mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 656,9 mlrd.so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 84,7 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,1 %ni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (399,2 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (200,7 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (146,8 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (141,9 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (94,1 mlrd. so'm), Buvayda tumani 84,1 mlrd. so'm) hamda So'x tumani (15,8 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1 531,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,3 %ni tashkil qildi. 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,8 %ga o'sish kuzatildi.






2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (375,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (283,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (131,3 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (161,3 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (105,9 mlrd. so'm), Buvayda tumani (61,3 mlrd. so'm), va Yozyovon tumani (11,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2024- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 93,5 %ni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 %ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,7%ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,9 %ni tashkil qildi.



2024- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,3 %ni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,6 %ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,5 %ni tashkil etib, 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,6 %ni tashkil qildi.

